

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI ORQALI IFODA TOPGAN KECHINMALARI

Dildora Oxbutayeva

“Nurli maskan” internati ona tili va adabiyot o’qituvchisi

Annotatsiya: Shavkat Rahmon serqirra shoir. O’z she’rlarida Vatanni math etishni hush ko’rgan va hurfikir shoirning she’riyatida bugun tabiat tasvirlarini ko’rmoqchimiz.

Kalit so’zlar: O’zbek adabiyoti, Qorasuv, nabijon boqiy, bulbul.

O’zbek adabiyoti tarixida o’ziga xos ovozi va va ijod olami bilan nom qozongan, she’riyatimiz maydonida o’z ijod maktabini yaratib ketgan zabardast shoirlarda biri Shavkat Rahmondir. Shoir o’tgan asrning 80-yillarda kuyunchak ovozi va isyonkor ruhi bilan adabiyotimizda alohida ko’zga tashlandi. U nainki har bir she’r, balki har bir so‘z ustida mahorat bilan ishladi. Bir-birini takrorlamaydigan satrlar, unutilmas badiiy obrazlar yaratish mahoratiga ega bo’lgan Shavkat Rahmon ijodi o’zbek adabiy tanqidchiligining yuksak e’tirofi va bahosiga musharraf bo’ldi. Shoir boshqa ijodkorlardan farqli o’laroq, faqat o’z kayfiyatini tasvir etish bilangina chegaralanmasdi, u hamisha millatning dardi, xalqining armonlarini ifodalashga intilgan edi.[1]

Shoir har yo’nalishda o’ziga xos mahorat bilan ijod qila olgan. Uning tabiat haqida gi Hata bulbulim she’ri alohida jozibalidir.

Ayt, ey, xasta bulbulim,

O’shga qachon yetamiz?

Yashil bog’lar sarg’ardi,

Mag’iz bo’ldi g’ujumlar.

Oh, voy, muncha yo’l og’ir,

Bulbulim...

Ulkan soat o’rtasida

Madorim yo’q yurmoqqa,

Qashqirlar davrasida

Sudralaman turmoqqa.

Shunda qolib ketsam gar

netamiz?

Abadiyat oralab

O’shga qachon yetamiz?

Qorli tog’lar bag’rida

Begim — O’shim ko’rindi,

Sulton — O'shim ko'rindi...

Shoirning Qorasuv dahasidagi beshinchi qavatda joylashgan kvartirasida odam gavjum edi. Xona to'riga yotqizilgan shoir jasadi, nihoyat, Hofiz aytganidek, bu dunyoning bor g'amg'ussalaridan qutulib osuda va tinch orom olardi. Kimdir aytganidek, buyuk to'fon tingandi. Endi hammasi tugadi. Hammasiga nuqta qo'yildi. Bir chekkada Nabijon Boqiy va Iqbol Mirzo qon bo'lib yig'lar, bir chekkada Mirza Kenjabek shoir jismini Toshkentga dafn etish yoki O'shga olib ketish to'g'risida bahslashar, deraza yonida yotgan shoir go'yo yuqoridagi bu satrlarini o'qiyotgandek, ammo hech kim bu satrlarni eshitmayotgandek edi. Bu uning eng so'nggi vasiyat she'ri edi. Ammo hozir hech kim she'r haqida o'yamas, «Xudoning hovlisi»ni tark etgan betakror o'zbek shoirining bemahal o'limi barchani es-hushdan judo qilgandi.

Ayt, ey, xasta bulbulim,

O'shga qachon yetamiz?

Bu misralar uning holatidan dalolat berardi. Shoir ketishini sezar, mavhum bu vaqtini kutish bekatida kechinmalarini qog'ozga tushirar edi.

Yashil bog'lar sarg'ardi,

Mag'iz bo'ldi g'ujumlar.

Oh, voy, muncha yo'l og'ir,

Bulbulim...

Shoit Allohnning hovlisidan ketarkan, holis o'ziga tabiatning go'zal honishi bulbul misolida hitob qilardi. Yoshlikning go'zal onlari yashil bog'lar kabi gullab eni o'zining sarg'ish so'lim barglarini to'kayotgani, mevalar pishib yetilib, endi qurib borayotganini o'z hayoti misol ifodalardi. Garchi bir qarashda u qadar sezilarli bo'lmasada, soddagina she'rda u hayot yo'llarini ifodaladi.

Ulkan soat o'rtasida

Madorim yo'q yurmoqqa,

Qashqirlar davrasida

Sudralaman turmoqqa.

Hayot soat kabi o'tib ketaveradi, go'yo vaxshiy bo'rilar kabi rahm qilmaydi insonga. Ohirlashayotgan lahzalar bu ayovsiz jangda ortiq kurashi kerak emasligini ta'kidlamoqda go'yo. Banda ko'z ochib yumguncha o'tar hayotda yugurib yelib, so'ngi onlarini O'sh misol Alloh huzuriga boorish uchun kutadi. Oddiy bulbul nolasi chin oshiqning mashuqiga yetmoq sahnasi bilan yakunlanadi. She'rda hayotni qadriga yetish va o'tkazgan umrdan afsuslanmay keta olish g'oyasi yashirin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/asqar-mahkam-adabiyot-ibodati-shoir-shavkat-rahmon-hayoti-va-ijodiga-chizgilar>
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shavkat-rahmon-sherlar-1.html>